

## DEMOGRAFIK JARAYONLARNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIGA TA'SIRINIHI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15540920>

**Xayitov Abdimannon Buxorovich**

*TDIU Mehnat iqtisodiyoti kafedrası  
professori, iqtisod fanlari nomzodi*

### **Annotasiya**

Mazkur maqolada demografik o'zgarishlar aholining soni va miqdori, tug'ilish va o'lish, nikoh va ajralish, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarini mamlakat mehnat bozoriga ta'siri ya'ni aholining o'sishi va uni iqtisodiyotga ta'sirini aniqlab, shunga binoan yetarlicha ish o'rinlari yaratish va ularni tahlil qilib kelajakdagi mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlash uchun demografik o'zgarishlarning muhimligi asoslab berilgan.

### **Kalit so'zlari**

demografik o'zgarishlar, aholining soni va miqdori, tug'ilish va o'lish, nikoh va ajralish, migratsiya va urbanizatsiya, mehnat bozori, mehnatga layoqatli aholi.

## НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ НА РАЗВИТИЕ РЫНКА ТРУДА

### **Абстрактный**

В данной статье анализируется влияние демографических изменений на численность и численность населения, рождаемость и смертность, брак и развод, миграционные и урбанизационные процессы на рынок труда страны, т.е. рост населения и его влияние на экономику. важность демографических изменений для создания достаточного количества рабочих мест и обеспечения стабильности на будущем рынке труда путем их анализа. Ключевые слова: государственный бюджет, государственный долг, внешний долг, баланс бюджета, управление долгом.

### **Ключевые слова**

демографические изменения, численность и численность населения, рождение и смерть, брак и развод, миграция и урбанизация, рынок труда, население трудоспособного возраста.

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF RESEARCHING THE IMPACT OF DEMOGRAPHIC PROCESSES ON LABOR MARKET DEVELOPMENT

### Abstract

In this article, the impact of demographic changes on the number and size of the population, birth and death, marriage and divorce, migration and urbanization processes on the country's labor market, i.e. population growth and its impact on the economy, is analyzed. the importance of demographic changes in order to create enough jobs and ensure stability in the future labor market by analyzing them.

### Key words

demographic changes, number and amount of population, birth and death, marriage and divorce, migration and urbanization, labor market, working age population.

**Kirish.** Jahonda iqtisodiyotning raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini jumladan, 2025 yilga kelib dunyoda raqamli iqtisodiyotning ulushi 23 trln. AQSh dollariga yetishi, uning jahon yalpi ichki mahsulotdagi ulushu hozirgi 17.1 foizdan 24.3 foizga o'sishi, bulutli texnologiyalardan foydalanuvchi korxonalar soni 58 foizga, sun'iy intellekt-86 foiz, raqamli katta hajmdagi ma'lumotlar-80 foizga oshish holati va uning jadal rivojlanib borishi mehnat bozoriga demografik o'zgarishlarining omillariga ko'ra ta'sirini sifat jihatdan baholash, mazkur omillarning mehnat bozoriga eng ko'p ta'sirini aniqlash hozirgi kundagi eng dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. 2050 yilga kelib, dunyo aholisi 9,7 milliardga ko'payishi kutilmoqda va asr oxiriga kelib, tug'ilish ko'rsatkichlari davom etayotgan pasayishiga qaramay, eng yuqori cho'qqisiga deyarli 11 milliard kishiga etadi. Bu davrda butun dunyo bo'ylab ko'proq odamlar shaharlarda yashashni tanlashi prognoz qilinmoqda va 5 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 65 va undan katta yoshdagi bolalardan ko'p bo'ladi. Hozirdan 2050 yilgacha bo'lgan davrda dunyo aholisi o'sishining yarmi atigi to'qqizta davlatga to'g'ri kelishi kutilmoqda: Hindiston, Nigeriya, Pokiston, Kongo Demokratik Respublikasi, Efiopiya, Tanzaniya, Indoneziya, Misr va Qo'shma Shtatlar (kattalik bo'yicha). Sahroi Kabirdagi Afrika aholisi ikki baravar oshadi, Yevropa aholisi esa qisqarishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda aholining o'sishi va uni iqtisodiyotga ta'sirini aniqlab, shunga binoan yetarlicha ish o'rinlari yaratish va ularni tahlil qilib kelajakdagi mehnat bozorini prognoz qilish uchun bizga albatta demografik

jarayonlar kerak bo'ladi. Demografik o'zgarishlar bir qancha tahlillarni o'z ichiga oladi, bular : aholining ma'lumotlarini yig'ish, tug'ilish va o'lish , nikoh va ajralish kabi tahlillar har bir mamlakatning mehnat bozorida muhim ro'l o'ynaydi. Bunga sabab, biz ushbu tahlillardan, kelasi bir necha yildan so'ng qacha ishchiga talab bo'ladi, va qancha ishchi ishdan o'rnidan ketishini, qancha odam tug'ilishini bilgan holda, bo'g'cha, maktab va universitetda nechta bolaga joy hozirlashimizni bilishimiz mumkin..

Yangi O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularni mehnat bozori rivojlanishida tutgan o'zni, demografik jarayonlar mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha yangicha ilmiy-nazariy qarashlar va asoslar, mehnat bozorini demografik jarayonlarni tartibga solish asosida rivojlantirish masalalari, demografik jarayonlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri va mehnat bozorining rivojlanishi va demografik jarayonlarni baholash mezonlari, demografik jarayonlarning mehnat bozori rivojlanishiga ijobiy ta'siri va uni amalga oshirishda xorijiy tajribalar hamda mehnat bozorining rivojlanishiga demografik jarayonlar salbiy ta'sirini qisqartirish imkoniyatlari va aniq maqsadlari belgilab berilgan/ Bu borada demografik o'zgarishlar va omillarning mamlakat mehnat bozoriga ta'sirini aniqlash hamda demografik omillarning hududlar kesimidagi o'ziga xos xususiyatlari va ularning mehnat bozoriga ta'sir etish mexanizmlari, ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 - yil 11- sentyabrdagi yanvardagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida, 2024 - yil - 21 fevraldagi PF-37-son «O'zbekiston – 2030» Strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida, 2024 - yil 4 - apreldagi PF-59-son mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2024 yil 23 apreldagi KQ-717-IV-son Mamlakatning migratsiya siyosati yo'nalishini yanada takomillashtirish masalalari haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori, Nikoh, oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to'g'risida 2023 yil 20 oktyabrdagi 550-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida 2018 yil 12 aprel 285-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2024 yil 10 may O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“O‘zbekistonga qaytib kelayotgan mehnat migrantlarini ishga joylashtirish” bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola tadqiqoti uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Demografik o‘zgarishlar ijtimoiy rivojlanishning bir qismi bo‘lganligi uchun davlat tomonidan tartibga solish masalalarida iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflarni ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiq. Masalan, Q.X.Abdurahmonov va N.K.Zokirovalarning fikriga ko‘ra, demografik o‘zgarishlarni davlat tomonidan tartibga solishga quyidagicha ta’rif berishgan: “Demografik siyosat davlat organlari va ijtimoiy institutlarning aholining takror barpo qilinishi jarayonlarini tartibga solish sohasidagi aniq maqsadni ko‘zlagan faoliyatidir<sup>10</sup>”. Rossiyalik taniqli demograf olimlardan V.G.Glushkovoy va Yu.A.Simaginalar ta’kidlashicha, «Demografik siyosat – bu demografik natijalarni aniqlashtirishga erishish va aholining tabiiy harakatiga ta’sir etish uchun davlat tomonidan qo‘llaniladigan chora tadbirlar tizimidir<sup>11</sup>”. Darhaqiqat, demografik muammolarni davlat darajasida tartibga solish mamlakat taraqqiyoti uchun eng asosiy yo‘nalishlardan biridir. Davlat tomonidan tartibga solishda eng asosiy e’tibor hududlardagi o‘ziga xos demografik o‘zgarishlarning qay darajaligiga qaratiladi.

P. I. Kosov va A. B. Berendeyevalar tomonidan ancha aniq ta’rif ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra “Demografik siyosat – ijtimoiy va oilaviy siyosat bilan chambarchas bog‘liq. Ularni bazida farqlashga to‘g‘ri keladi. Ijtimoiy siyosat hayot sharoitlarini boshqarish va ehtiyojmandlarga yordam berish masalalarini o‘z maqsadlari ichiga oladi. Oilaviy siyosat esa davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining oilalarning tashkil etilishi, oiladagi turmush tarzi, jamiyat rivojlanishining uzoq tarixiy yo‘li yo‘qolib ketmasligi, oilaning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ijtimoiy institut sifatida oilalarning mustahkamligiga yo‘naltirilgan faoliyatidir<sup>12</sup>”. Mualliflar I. Kosov va A. B. Berendeyeva tomonidan “Demografik siyosat – ijtimoiy va oilaviy siyosat bilan chambarchas bog‘liq”-deb ta’kidlab berishgan. Bizningcha oila muammosi ijtimoiy muammolar tarkibida bo‘ladi. Mazkur muammolarning bog‘liqligi muammolarning o‘xshashligida emas, balki muammolarning yagonaligidadir.

“Global o‘zgarishlar natijasida migratsiyaning o‘zi ham mezbbon, ham manba jamiyatlarida keyingi o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi. Shunday qilib, Evropa mamlakatlarida aholining o‘sishi asosan migrantlar hisobiga amalga oshiriladi,

<sup>10</sup> Абдурахмонов Қ.Х ва бошқалар. Демография. Дарслик. – Т.: IQTISODIYOT, 2014.-334-б.

<sup>11</sup> В.Г.Глушковой, Ю.А.Симагина, Демография: учеб. пособие – М.: КРОНУС, 2013 – с.206

<sup>12</sup> П.И.Косов, А.Б.Брендеева, Основы демографии: учеб. пособие – 2-изд. – М.: ИНФРА-М. 2013 – с.213-214



chunki bu mamlakatlarda tug'ilishning pastligi tufayli mahalliy aholining qarishi tezlashadi"<sup>13</sup>.

“Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning asosida inson turadi. Mamlakat aholi soni va sifatining u yoki bu tomonga o'zgarishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhala-riga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Iqtisodiy demografiya yo'nalishining yirik namoyondasi bo'l-gan B.TS.Urlanis «aholi va iqtisodiyot orasidagi munosabatlarni izohlab, iqtisodiy omillar demografik jarayonlarni hal qilishdagi muhim sharti bo'lsa, demografik jarayonlar ham o'z nav-batida iqtisodiy jarayonlarning borishiga ta'sir etmasdan qolmaydi"<sup>14</sup>, - deb ta'kidlab o'tgandi.

Darhaqiqat, aholining ko'pyishi, mehnat bozorida ishchi kuchiga talab aynan ishchi kuchiga taklif orqali ya'ni, hududlarning tarmoq va soha ehtiyojlariga aniqlanishi mamlakat rivojlanish strategiyasidagi eng asosiy ta'sir ko'rsatuvchi kuch sifatida ta'sir qiladi. Hududlarda aholi sonining ko'pligi ishchi kuchi taklifining yuqoriligi bilan mehnat bozori sigmentida nobarqaror vaziyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur muammo bo'yicha o'z vaqtida amalga oshirilmagan chora tadbirlar, kelgusida hududlarda ishsizlik darajasini oshishiga, aholi turmush darjasi va farovonligini pasayishiga xizmat qiladi.

Migratsiya, har bir ichki va global, mehnat taklifini hududlar va mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlash orqali mehnat bozorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qishloqdan shaharga migratsiya, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda odatiy hol emas, shaharlardagi og'ir mehnat bozorlari va tasodifiy ish bilan ta'minlanishi mumkin. Shu bilan birga, global migratsiya dam olish maskanlari bo'lgan mamlakatlarda mashaqqat tanqisligini yumshatishi mumkin, shu bilan birga, muhojirlarning boshlang'ich mamlakatlarida aqlning oqishini kuchaytiradi.

Klivlend Federal zaxira bankining prezidenti va bosh ijrochi direktori lavozimlarida ishlagan Loretta J. Mester “har qanday iqtisodiyot fundamental asosining hal qiluvchi omili demografik omil, deb hisoblaydi. Demografik o'zgarishlar iqtisodiyotning o'sish sur'atlari-ga, unumdorlikning tarkibiy o'sishi, turmush faravonligi, jamg'arish darajasi, iste'mol va investitsiyaga ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga uzoq muddatli ishsizlik darajasi va protsent stavkasining muvozanati, uy-joy bozoridagi tendensiyalar va moliya aktivlariga talab miqdoriga ta'sir etishi mumkin. Turli mamlakat-larda demografik tendensiyalardagi farqlar joriy operatsiyalar va valyuta ayirboshlash kurslariga ta'siri ham kuzatiladi. Shu sababli global iqtisodiyotni anglash o'zgaruvchan demografik

<sup>13</sup> Абдурахманов К. Х., Зокирова Н. К. Основные тенденции и направления внешней миграции Республики Узбекистан. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar”(Economics and Innovative Technologies)ilmiy elektron jurnali. 3/2023,may-iyun(No 00065

<sup>14</sup> Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). –Т.: “Фан ва технология”, 2010. 8-бет

vaziyat va u ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishlari, pul-kredit va soliq-budjet siyosatini olib boruvchilar oldiga qo'ya-yotgan muammolarni tushunish lozim"<sup>15</sup>, deb ta'kid-laydi Loretta J. Mester.

Aholining qarishi, tug'ilish to'lovlarining kamayishi va umr ko'rish davomiyligining ko'payishi natijasida mashaqqatli mehnat bozorini rivojlantirish uchun muayyan talabchan vaziyatlar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Keksa yoshdagi aholi ijtimoiy himoya tuzilmalari va sog'liqni saqlash infratuzilmasiga bir vaqtning o'zida keksa yordam xizmatlari va professional tibbiyot xodimlariga talab ortib borishi bilan bosim o'tkazishi mumkin. Bundan tashqari, keksa xodimlar xodimlarni ishga joylashtirish va malakasini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar talab qiladigan xodimlarni qayta kiritish yoki qoldirishni izlashlari mumkin.

"Har bir mamlakatda demografik tahdidlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholining tarixan shakllangan takror ishlab chiqarish turi va oila institutining etuklik darajasi bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ko'pgina mamlakatlar aholi sonining kamayishi, oila institutining degradatsiyasi va aholi tarkibi deformatsiyalangan holatda. Aholining qarishi dolzarb muammoga aylanib bormoqda, ya'ni. 65 va undan katta yoshdagi aholining umumiy aholi sonidagi ulushini oshirish. Bu tug'ilish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda eng ko'p uchraydi. Shunday qilib, Boltiqbo'yi va Skandinaviya mamlakatlarida ushbu yoshdagi aholining ulushi – 20%, Italiyada – 22%, Monako – 24%, Yaponiyada – 27%"<sup>16</sup>.

Mehnat bozori keng ma'noda mehnat resurslarining talab va takliflari munosabatlarini umumiy qabul qilingan huquqlar va inson erkiga amal qilinishi asosida ta'minlaydigan jamiyat munosabatlari, ijtimoiy me'yorlar va institutlar tizimi sifatida ko'rib chiqiladi. Bunday belgilashga muvofiq, mehnat bozori – bir-biriga qarama-qarshi turadigan, bir tomondan ish izlayotgan shaxslar, ikkinchi tomondan, korxona va tashkilotlarda bo'sh ish o'rinlariga ega bo'lgan ish beruvchilar o'rtasida mehnat shartnomalari tuziladigan muhit. Iqtisod fanlari doktori, professor., akademik Q.H. Abduraxmonovning ta'rifiga ko'ra, "Mehnat – insonning muayyan ehtiyojlarini qondira oladigan va o'ziga kerak bo'ladigan moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish (yaratish) bo'yicha ongli, maqsadli va ta'qiqlanmagan faoliyatidir"<sup>17</sup> - deb tariflaydilar.

<sup>15</sup> Loretta J. Mester. Demographics and Their Implications for the Economy and Policy. Cato Institute's 35th Annual Monetary Conference: The Future of Monetary Policy Washington, DC November 16, 2017. <https://www.clevelandfed.org/collections/speeches/2017/sp-20171116-demographics-and-their-implications-for-the-economy-and-policy>

<sup>16</sup> Максакова Л. П. Демографическая безопасность как фактор современной стратегии развития узбекистана. Иктисод ва молия / Экономика и финансы 2020, 3(135)

<sup>17</sup> Қ.А.Абдурахмонов. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт / Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «FAN» нашриёт давлат корхонаси, Т.: 2019. – 592 б.

Mehnat bozorini demografik nuqtayi nazardan tadqiq etishda A. Pigu, D.Nortalarning fundamental ishlari, shuningdek, N.D.Epshteyn, M.V. Karmanov, A.V.Vasilevalarning inkremental tadqiqotlari sezilarli o'rin egallaydi.

Demografik ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi tavsifga ega. Birlamchi ma'lumotlar — demografik jarayonlar haqida to'plangan dastlabki statistik ma'lumotlar, jadvallarva maxsus ko'rsatkichlar. Ikkilamchi ma'lumotlar — bu birlamchi ma'lumotlar asosida olib borilgan ilmiy tahlil va hisob-kitoblardir<sup>18</sup>. Aholi haqidagi axborot tizimi barcha aholini qamrab oluvchi ikkita asosiy manbadan iborat bo'lib, bular aholi ro'yxatlari va tabiiy harakatning joriy qayd etilishini, shuningdek tanlama tadqiqot, aholi registrlari kabi qo'shimcha manbalarni o'z ichiga oladi. Aholi ro'yxatlari va aholini joriy qayd etishdan olinadigan ma'lumotlarsiz demografik koeffitsientlarni hisoblab bo'lmaydi. Aytish joizki, bu koeffitsientning sur'ati joriy qayd etish bo'lsa, maxraji aholi ro'yxati yoki uning asosida olingan hisob-kitoblar bo'ladi. Aholi ro'yxati — aholi haqidagi muhim axborot manbalaridan biri bo'lib, aholi soni va uning harakati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonidir. BMT ta'rifiga ko'ra, aholi ro'yxati — bu ma'lum vaqtda mamlakatda yoki uning cheklangan bir qismida yashovchi jami aholi haqidagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, tahlil qilish va nashr etish jarayonidir<sup>19</sup>.


Demografik taktika va mehnat bozori o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ko'p qirrali bo'ladi. Ushbu aniq maqsadlar ushbu bog'liqlikning ilmiy va nazariy asoslarini o'rganish, demografik omillarning mehnat bozori dinamikasiga ta'sir qilish mexanizmlarini yoritishga qaratilgan. Asosiy nazariyalarni, empirik dalillarni va siyosat natijalarini tekshirish orqali biz demografik tuzatishlar mehnat bozorlarining tuzilishi, tarkibi va faoliyatini qanday shakllantirishi haqida chuqurroq tajribaga ega bo'lamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ishida mamlakatimiz hamda xorijiy rivojlangan davlatlar iqtisodchi olimlarining mehnat bozorida xususiy sektor ehtiyoji asosida o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari, olimlarning qarashlari hamda fikr va mulohazalari tahlil etilgan. Maqolada empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** XXI asr mavjud muammolarning globallashuvi, hududlar o'rtasida turli daraja va toifadagi mamlakatlarning integratsiyalashuv jarayonidagi nobarqarorliklar oqibatida aholi turmush darajasi va farovonligidagi farq va nisbatlarning kattaligi bilan farqlanadi.

<sup>18</sup> Бўриева М.Р. Демография асослари. — Тошкент, 2001. — 16 б.

<sup>19</sup> Основы демографии: Учебное пособие / П.И. Косов, А.Б.Берендеева. - 2-е изд, доп. и перераб. — М.: И Н Ф РА -М, 2010. - С. 29.




### 1-rasm. Demografik o'zgarishlar ko'rsatkichlari<sup>20</sup>

Demografiya muammosi-budun dunyo muammosi. Dunyo mamlakatlari aynan demografiya muammosini mazkur davlatlardagi uzoq yillardan beri shakllanib kelayotgan o'ziga xos xususiyatlar, yani demografik o'zgarishlar va ularning ko'rsatkichlarig orqali farqlanib turadi. Tadqiqotimizda qo'yidagi demografik o'zgarishlarning ko'rsatkichlarini tahlil qildik:

<sup>20</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan





### 1-pacm. Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni<sup>21</sup>

1-rasmda Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni tahlili 2010-2023 yillar davomidagi holati mamalakatimizda 14 ta hudud kesimida aholi soni va miqdoriga ko'ra farqlanishi aniqlangan. Bu esa inson resurslarining joylashuvi va harakatlanishining qo'yidagi darajalari bilan tavsiflanadi hamda mehnat bozoriga o'z ta'sirini ko'rsatadi:

1. Mego darajada Rasmiy va norasmiy migratsiya sonining oshishi buning natijasida Respublika mehnat bozorida nobarqaror vaziyatni yuzaga kelishi

2. Makro darajada.

-ishsizlar sonini oshishi. Buning natijasida aholi daromadlarini pasayishi, kambag'allik darajasini o'sishi.

-mshsizlar sonini kamayishi. Buning natijasida aholi daromadlarini oshishi, kambag'allik darajasini kamayishi.

3. Mezo darajada.

Mehnat bozorida tarmoq va sohalarning ehtiyojiga ko'ra kadrlar tayyorlash borasidagi barqaror yoki nobarqaror vaziyatni shakllanishi.

Mehnat bozori konyukturasidagi nomutonosib vaziyatni shakllanishi.

Mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifni rag'batlantish borasidagi yondoshuvlarni nofaooligi

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida mualli tomonidan ishlab chiqilgan

4. Mikro darajada. Ish beruvchilarni ishchi kuchiga bo'lgan taklif asosida ish o'rinlari yaratishdagi manzilsiz dasturlarni ishlab chiilishi. Ta'lim mussasalarining ish beruvchilar ehtiyojlarini hisobga olmagan holda kadrlar tayyorlash tizimidagi nomutonosibliklar.

O'rbaniizatsiya jarayonlaridagi o'zgarishlar. Shahar joylarda. Toshkent shahri va viloyat, tuman markazlari hamda aholi sonining oshishi va buning natijasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi muammolarni yuzaga kelishi:

- shahar aholisi sonining keskin darajada oshishi;
- shahar joylarida Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini oshishi;
- shahar joylarda aholi daromadlarini oshishi;
- aholining ehtiyojlari uchun xizmat qiladigan ijtimoiy infratuzilmadagi narxlarning o'sishi;
- shahar hududlarining qishloq hududlariga tegishli bo'lgan yer resurslari hisobiga kengayishi;
- mehnat bozorida tarkibida rasmiy va norasmiy ish bilan bandligi o'trasidagi nomuvofiqliklarni yuzaga kelishi va buning natijasida yashirincha iqtisodiyotni shakllanishi;
- aholining ijtimoiy sohalaridagi xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarning yuqoriligi natijasida narxlarning keskin darajada oshishi;

O'rbaniizatsiya jarayonlaridagi o'zgarishlar. Qishloq joylarda.

- qishloq joylarda aholi sonining shahar hududlariga nisbatan kamayishi
- rasmiy va norasmiy mehat migratsiya darjasining ortishi;
- aholi turmush darajasini pasayishi
- ishsizlik darajasini oshishi
- ijtimoiy infratuzilma darajasini pastligi
- arzon ish joylari salmog'ini ortishi

Migratsiya jarayonlarining o'zgarishi. Aholi tarkibida mehnatga layoqatli aholini yoshlar va qariyalarga nisbatan yoki demografik dividendni mavjudligi. Ayniqsa mazkur holatda mehnatga layoqatli aholining rasmiy ish bilan bandliuda eshtiriok etmasligi bilan xarakterlanadi. 2022 yil oktyabr-noyabr oylarida iqtisodiy faol aholining atigi 5,5 mln nafari daromad solig'i tulagan. Shu bilan birga iqtisodiy faol aholining rasmiy sektorda ish bilan band bo'lmasligi yashirish iqtisodiyotning rivojlanishiga asosiy sabablardan biri bo'lib qolmoqda. Илй муносабат билан Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga xizmat qiladigan barcha dasturlarda ishsio'likni kamaytirish, kambag'allikka barham berish, aholi turmush darakjasi va farovonligini oshirish atroflicha e'tibor qaratilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PQ-300-son qarori. 1-ilovasi 29-maqsadida belgilangan vazifa, ya'ni "band bo'lmagan shaxslar,

kambag'al oilalarning ishsiz a'zolari va yoshlarni davlat hisobidan amaliy monomarkaz, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko'nikmalariga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali ularning bandligiga ko'maklashish ko'lamini ikki barobar oshirish"<sup>22</sup>- 2024 yilning eng ustuvor yo'nalishi sifatida qabul qilindi.

Ayni paytda qiyamati va bahosi tengi yo'q mehnatga layoqatli aholining mamlakat ichi mehnat bozorida foydalanish imkoniyati juda past darajada.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganimizda, mamlakat hududlarida hozirgi kunga kelib Faqat Sirdaryo viloyatida aholi soni 1 mln kishiga yetmaganligini e'tiborga olsak, Samarkand viloyatida 4 mln.dan ortiq Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida ham aholi soni 4 mln. Nafarga yaqinlashganini o'zi ham hududlarda demografik o'zgarishlarni qabul qilmayotgan barcha dasturlarni eng avvalo mahalla, so'ngra tarmoq va sohalar darajasida va qolaversa, viloyat hamda Respublika darajasida hisobga olish zarur. Aynan deografik o'zgarishlarni hisobga olishdanimalarga e'tibor qaratilishi lozim:

- birinchidan, hududlarda aholi sonining o'sish darajasi. Aholi sonining o'sishida asosiy diqqat e'tiborni 1 yillik yoki 5 yillik davr oralig'idagi o'zgarishlar holatini emas, balki o'tgan 10-15 yilda hudud aholisini ko'payishi prognoziga qaratilishi lozim. Ushbu prognozni amalga oshirilishi hudud aholisi sonini eng avvalo miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilsa, bu esa o'z navbatida aholi mehnat potensialini sifat ko'rsatkichlari holati qay darajada bo'lish ehtimolidan ham xabardor qiladi. Aynan hududlarda demografik o'zgarishlar tarkibida aholi sonini o'sishi yoki kamayishi to'g'risidagi ma'lumotlarni yo'qligi yoki noaniqligi. Hududlar rivojlanishi uchun bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda:

- birinchidan, tarmoq va sohalar ehtiyojiga ko'ra kadrlar tayyorlash tizimidagi nomutunosibliklar;

- ish o'rinlarini yetishmasligi, ishsishlarni ortishi;

- uchinchiidan, hududlar lp i ichki mahsulotni past darajasi;

- to'rtinchidan, aholi daromadlari va turmush darajasi pastligi yoki nobarqarorlashuvi;

- beshinchidan, mehnat bozori konyukturasida keskin darajada holatni o'zgarishi, ya'ni bu holat talabni pastligi hamda talabni yuqoriligi bilan xarakterlanadi;

- oltinchidan, ichki va tashqi mehnat bozorida ishchi kuchining rasmiy va norasmiy harakatida nobarqarorlashgan vaziyat yuzaga keladi. Ya'ni mazkur

<sup>22</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PQ-300-son qaroriga. 1-ilova.«O'zbekiston — 2030» strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2023 yilga mo'ljallangan.Amaliy tadbirlar rejasi.29-maqсад.

holatda mamlakat ichki mehnat bozorida, jumladan Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar tuman va shaharlarida ishchi kuchi taklifining oshishiga olib keladi. Aynan ishchi kuchi taklifining oshishi, masalan Toshkent shahri misolida qarasak, keingi 20 yil ichida shahar maydoni bir necha marta kengaytirildi, qabul qilinayotgan ijtimoiy-tqtsodiy rivojlanish dasturlarida muqim yashayotgan aholi soniga qarab asosiy ko'rsatkichlar belgilanadi. Vaqtincha yoki doimiy ish qidirib, yoki yashash uchun kirib kelgan aholi soniga mutloqa e'tibor qaratilmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PQ-300-son qaroriga. 1-ilova "O'zbekiston – 2030" strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2023 yilga mo'ljallangan. Amaliy tadbirlar rejasi. 29-maqсад.

2. Абдурахмонов Қ.Х ва бошқалар. Демография. Дарслик. – Т.: ИҚТISODIYOT, 2014.-334-б.

3. В.Г.Глушковой, Ю.А.Симагина, Демография: учеб. пособие – М.: КРОНУС, 2013 – с.206

4. П.И.Косов, А.Б.Брендеева, Основы демографии: учеб. пособие – 2-изд. – М.: ИНФРА-М. 2013 – с.213-214

5. Абдурахманов К. Х., Зокирова Н. К. Основные тенденции и направления внешней миграции Республики Узбекистан. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 3/2023, may-iyun (No 00065)

6. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). –Т.: "Фан ва технология", 2010. 8-бет

7. Loretta J. Mester. Demographics and Their Implications for the Economy and Policy. Cato Institute's 35th Annual Monetary Conference: The Future of Monetary Policy Washington, DC November 16, 2017. <https://www.clevelandfed.org/collections/speeches/2017/sp-20171116-demographics-and-their-implications-for-the-economy-and-policy>

8. Максакова Л. П. Демографическая безопасность как фактор современной стратегии развития узбекистана. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2020, 3(135)

9. Қ.А.Абдурахмонов. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт / Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.: Ўзбекистон



Республикаси Фанлар академияси «FAN» нашриёт давлат корхонаси, Т.: 2019. – 592 б.

10. М.Р. Бўриева Демография асослари. — Тош кент, 2001. — 16 б.

11. Основы демографии: Учебное пособие / П.И. Косов, А.Б.Берендеева. - 2-е изд, доп. и перераб. — М.: И Н Ф РА -М, 2010. - С. 29.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari